



iQRO JOURNAL

BIZNING YO'NALISHLARIMIZ

- 1. Tibbiyot fanlari**
- 2. Pedagogika fanlari**
- 3. Ijtimoiy-gumanitar fanlar**
- 4. Aniq fanlar**
- 5. Tabiiy fanlar**
- 6. Iqtisod fanlari**
- 7. Psixologiya fanlari**
- 8. San'at va madaniyat fanlari**
- 9. Filologiya fanlari**
- 10. Texnika fanlari**



Website:

<https://wordlyknowledge.uz>

**Sobirova Dilafroz Safarboy qizi
Ro'zimboyeva Farangiz Jamolovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lif fakulteti 1-kurs talabalari.
Navruzov Ulug'bek**

BOLALAR UCHUN MATEMATIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHDA VIZUAL MATERIALLARNING ROLI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar uchun matematik tushunchalarni rivojlantirish jarayonida vizual materiallarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqod natijalari shuni ko'rsatadi, rangli grafiklar, shakllar, diagrammalar va boshqa ko'rgazmali vositalar bolalarning matematikani chuqur tushunishiga, e'tiborini jamlashiga va mustahkam bilim hosil qilishiga yordam beradi. Shuningdek, visual materiallar bolaning ijodiy tafakkuri va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmasini rivojlantirishda muhim rol o'yinaydi.

Kalit so'zlar: matematika, rangli grafik, geometrik shakllar, diagrammalar, ko'rgazmalar, matematik materiallar, grafik, matematik tushunchalar, o'quv materiallari, didaktik vosita, ta'lif jarayoni, ta'lif, vizaul materiallar.

Mamlakatimizda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali matematika o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish asosida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ularning jahon svilizatsiyasi yutuqlar, hamda dunyo axborot resurslaridan keng foydalanishlari, xalqaro hamkorlik v ava koorparativ xizmatlarda yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, "Oliy ta'lif muassasalarida ilmiy salohiyatini yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ko'lamin kengaytirish- eng muhim masalalaridan biridir".(1)

Matematika so'zi grekcha "bilish fani" so'zidan olingan bo'lib, u bizga qadimgi Yunonistondan yetib kelgan. Vizual materiallar- bu ko'rish orqali ma'lumotni taqdim etuvchi material yoki vositadir. O'quv jarayonida vizual materiallar o'quvchilarga mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi, chunki ular ko'rish orqali ma'lumotni o'zlashtirishadi. Vizual materiallar o'quvchilarga abstrak tushunchalarni aniqroq va osonroq tushunishga yordam beradi shuningdek, o'qituvchilar uchun ta'lifni yanada qiziqarli va interaktiv qilishga imkonini yaratadi.

Vizual materiallarga :

Diagrammalar: ma'lumotni tartibga solish yoki oson tushunish uchun diagramma va grafiklar.

Vediolar: dars jarayonida mavzuni ko'rsatuvchi vediolar.

Slaydlar: taqdimotlar uchun yaratilgan slaydlar, ular matn, Bolalar uchun matematik tushunchalarni rivojlantirishda vizual materiallarning roli va diagrammalar va rasmlar birlashmasi.

Karta va xaritalar: geografik yoki ma'lumotlarni ko'rsatish uchun ishlataladigan materiallar.

Dedaktik vosita- bu ta'lif jarayonida o'quvchilarga bilimlarni o'rgatish va ularga o'quv materiallarini tushuntirishda yordam beruvchi har qanday vosita yoki materialdir. Bu vositalar

o'quvchilarga yangi ma'lumotlarni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi va ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.

Dedaktik vositalarga quyidagilar kirishi mumkin:

- Kitoblar va boshqa yozma materiallar.
- Rasm va diagrammalar, chizmalar.
- O'qituvchilarning taqdimotlari, slaydlar.
- Interaktiv materiallar, vedio va multimediali dasturlar.
- Simulyatsiyalar yoki tajribalar.
- O'quv kompyuter dasturlari.

Bu vositalar o'quvchilarga mavzuni o'zlashtirishni osonlashtirishga va o'qituvchilarga o'quv jarayonini yaxshilashda yordam beradi.

Matematika- bu nafaqat raqamlar, balkim tafakkur, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish san'atidir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematikani o'rgatish jarayonida bu fanning murakkab va mavhum jihatlarini soda va tushunarli shaklda yetkazish muhimdir. Shu nuqtai nazardan, vizual materiallardan foydalanish bolalar uchun matematik tushunchalarni chuqur va samarali o'zlashtirishda muhim vositaga aylanadi.

Vizual materiallar tushunchalarni konkretlashtiradi, boisi: bolalar abstrak tushunchalarni tushunishda ko'pincha qiynaladilar. Vizual materiallar, dedaktik vositalar orqali mavhum bilimlarni aniq va tushunarli ko'rinishga keltirishga yordam beradi. Masalan qo'shish va ayirish amallarini turli rangdagi kubiklar yordamida ko'rsatish orqali bola sonlar orasidagi munosabatni ko'z oldida tasavvur qiladi.

Ta'lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi: rangli va jonli vizual materiallar bolalarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Masalan: matematik o'yinlar, puzzlelar, geometrik konstryksiyalar orqali bolalar bolalar faol ishtirot etib o'zлari mustaqil tarzda yangi bilimlar olishadi. Bu esa ularning motivatsiyasini oshirish va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Har bir bolaning o'rganish uslubi har xil bo'lishi mumkin. Ayrimlar eshitish orqali, boshqalar ko'rish orqali yaxshi o'rganadi. Vizual materiallar , ayniqsa, ko'rish orqali o'rganadigan o'quvchilar uchun juda foydalidir. Bu orqali o'quvchilar uchun juda foydalidir. Bu orqali darslar barcha bolalar uchun moslashuvchan va inklyuziv bo'ladi.

Mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish, ko'nikmasini rivojlantiradi: masalaning grafik ko'rinishini tahlil qilish, shakllarni taqqoslash, yoki diagramma orqali natija chiqarish bolalarning tahliliy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Vizual materiallar yordamida bolaning tanqidiy fikrashi, qiyin vaziyatlarga mustaqil yechim toppish layoqati shakllanadi.

Dars samaradorligini oshiradi: ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vizual vositalardan foydalaniladigan darslar bolalarda bilimni uzoq muddatli eslab qolish va amalda qo'llash qobiliyatini kuchaytiradi. Bu orqali o'qituvchi darsda nafaqat bilim beruvchi, balki yo'naltiruvchi va motivatsiya beruvchi rolini ham bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, bolalar uchun matematik tushunchalarni rivojlantirishda vizual materiallarning o'rni beqiyosdir. Ular nafaqat bilimlarni aniq va tushunarli ko'rinishda yetkazadi, balki bolalarning fikrlash doirasini kengaytiradi, mustaqil o'rganishga undaydi va darsni yanada qiziqarli qiladi. Shu sababli, har bir o'qituvchi o'z amaliyotida vizual materiallardan faol foydalanishi, ularni dars jarayonining ajralmas qismiga aylantirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matematika o'qitish medotikasi- 2021
2. Umumiy medotikasi J.A. Usarov, D.M.Mahmudova, A.K.Yusupova, Z.X.Siddiqov, I.A.Eshmatov
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga bergen murojaatnomasi.
4. Qonuniy hujjatlar, ma'lumotlar bazasi- 24.09.2020.
5. Toshkent-2018

ASOSLARI	
Mamatova Nilufar Abduxoshimovna	
APPLICATION OF SPECIAL AND IMPROPER INTEGRALS TO ECONOMICS: A COMPREHENSIVE OVERVIEW	949
Akhmedov Sher dor, Tokhirova Maryamoy	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTALARINING TA'SIRI VA AHAMIYATI	953
Saparov Ismat Chorshanbiyevich	
BOLALAR UCHUN MATEMATIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHDA VIZUAL MATERIALNARING ROLI	956
Sobirova Dilafruz Safarboy qizi, Ro'zimboyeva Farangiz Jamolovna, Navruzov Ulug'bek	
BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIK MATNLARI O'QITISH	959
Bekmurodova Sarvinoz Ashrafovna, O'r az boyeva Charos Davron qizi, Navruzov Ulug'bek Bababekovich	
ƏLİ NƏZMI MİRZƏ ƏLƏKBƏR SABİR SATIRİK ƏDƏBİ MƏKTƏBINİN DAVAMÇISI KİMİ	962
Ulduz Fərhad Qəhrəmanova	
O'QUVCHI-YOSHLARDA INSONPARVARLIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA GEOGRAFIYA FANINING AHAMIYATI	974
Akramov Eldor Parmonovich	
NEOLOGISMS AND THE DYNAMIC DEVELOPMENT OF THE ENGLISH LANGUAGE	977
Jumamuratova Rahimaxon Hikmat qizi, Bazarbaeva Albina Mingalievna	
MATEMATIK MUAMMOLARNI HAL QILISHDA HAMKORLIK VA GURUH ISHLASHINING AHAMIYATI	981
Yuldasheva Muhabbat Bayrambayevna, Navruzov Ulug'bek	
МОЛИЯВИЙ ХАВФСИЗЛИККА АСОСЛАНГАН БАНК ИЧКИ НАЗОРАТНИНГ РИВОЖЛАНИШИ	984
Исламова Наргиза Мирзахидовна	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KONSENTRATSİYANING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	995
Israilova Xusnida Adilovna	
QAHRAMON VA SHAROIT	1000
Ergashov Bekzod Jahongir o'g'li	